

Surxondaryoda «Sog'lom hayot uchun 5000 qadam» shiori ostida piyoda yurish marafoni bo'lib o'tdi



Prezidentning aholi o'rtasida sportning ommaviyligini ta'minlash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha bergan topshiriqlariga asosan, viloyat markazi - Termiz shahrida bugun erta tongdan «Sog'lom hayot uchun 5000 qadam» shiori ostida ommaviy yurish marafoni tashkil qilindi.

Marafonda davlat va jamoat tashkilotlari vakilari, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Surxondaryo viloyatida joylashgan harbiy qismlar harbiy xizmatchilari, nuroniy oqsoqollar, onaxonlar va keksalar, yoshlar ishtirok etdi. Tadbirda to'rt mingga yaqin ishtirokchi qamrab olindi.

https://t.me/axborot_xizmati